

Qosimova Mavluda Muhammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti

Burxanova G.Z.
Buxoro davlat pedagogika instituti
2- bosqich talabasi

BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINI GEOMETRIK MATERIALLAR BILAN TANISHTIRISHNING QULAY USULLARI

Annotatsiya. Bu maqolada boshlang'ich o'quvchilariga geometrik materiallarni o'rgatishning usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: geometric masala, uchburchak, to'rtburchak, nuqta, to'g'ri chiziqli, kesma.

УДОБНЫЕ СПОСОБЫ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ПЕРВОКЛАССНИКОВ С ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МАТЕРИАЛОМ

Аннотация. Работа над геометрическим материалом в начальных классах составление и решение творческих задач учащимся является объектом данной статьи.

Ключевые слова: задача, геометрическая задача, треугольник, четырёхугольник, пример, задание, прямая линия, отрезок.

CONVENIENT WAYS TO INTRODUCE FIRST GRADERS TO GEOMETRIC MATERIALS

Annotation. The work with arithmetic tasks in initial classes, drawing up and decision of creative tasks by the pupils is object of given clause.


Keywords: matter, geometrical task, arithmetical action, example, task, straight line, cross section

1 – 4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni qamrab oladi. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

Kreativ, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya tamoyillari asosida tuzilgan bu darslik o'quvchilarda ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Darsliklar, asosan, xalqaro baholash dasturlari talablari bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'qituvchining asosiy vazifasi matematika darslarida mustaqil, erkin, ijodiy va kreativ fikrlay oladigan raqobatbardosh, dunyo bozorida o'z qarashiga ega o'quvchilarni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday o'quvchilarni tarbiyalash ularga fan asoslarini chuqur o'rgatish va to'g'ri yo'naltirish bilan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini geometrik materiallar bilan tanishtirishdan asosiy maqsad o'quvchilarga to'g'ri chizish kesmasi, burchaklar, geometric shakllar (uchburchak, to'rtburchak, ko'pburchak)ning aniq ko'rsatmali tasvirini berish shakllarining ba'zi xossalari ko'rib chiqish va bu bilimlardan bolalarning uzunlik va yuzalarni o'lchay olish malakalarini egallashga foydalana olishni hamda yuqori sinf matematika kursi uchun poydevor yaratishdan iboratdir. Geometrik materiallarni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida o'qitishning shunday metodlaridan foydalanish kerakki, natijada o'quvchilarda aniq geometric tasavvurlar hosil bo'lsin. O'zlashtirish jarayon boshidan oxrigacha faol, aniq va ko'rgazmali bo'lishi, tushuntirish davomida amaliy mashqlardan keng foydalanishimiz zarur. Yangi avlod darsliklarida dastlabki mavzulardan boshlab o'quvchilarning maktabgacha ta'lim tashkilotlartida olgan geometric bilimlarini mustahkamlash maqsadida geometric topshiriqlar berilgan.






(1-sinf 1-qism 4- betdagi geometric topshiriq) . Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan to'g'ri to'rtburchak, doira, uchburchak, kvadrat kabi shakllarni ajratib berishlari va ularning muhim bo'lmagan xossalari- ranglari haqida gapirib berishlari talab qilingan. Geometrik shakllarning muhim xossalari; uchburchakning uchta tomonga, uchta uchga, qolaversa uchta burchakka ega bo'lishi, to'g'ri to'rtburchakning, kvadratning muhim xossalari oshkormas holda hayotiy misollar orqali o'gatilib boriladi. Masalan, quyoshning doira shakli bilan, to'g'ri to'rtburchakni televizor, deraza oynasi, uchburchakni uchburchakli somsaga qiyoslab yana tevarak atrofda shunday predmaetlarni topib qiyoslash topshirig'i berilsa, o'quvchilarning mustaqil ishlash va fikrlashlari uchun zamin tayyorlanadi.

Darslik sahifalarida o'quvchilar tayyor geomemtrik shakllar bilan ish olib bormay, balki yasash, qirgish, cho'plar bilan ishlash, modellastirish, qog'oz varog'ini buklash orqali shakllar hosil qilish va ulardan foydalangan holda o'zlari ham shakllarni chizishlaridan (xususan, qachonki tanish shakl murakkab shaklning elementlaridan biri bo'lsa) va atrof borliqdan taniy olishlari, yasay bilishlari ham kerak. Geometric materiallarni o'qitish jarayonida muammoli ta'limdan foydalanish orqali o'quvchilarchilarning tasavvur qilish, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.



5. To'g'ri to'rtburchaklar rasmini shunday chizib davom ettiringki, ular mashinaga o'xshash bo'lsin hamda ikkitasi o'ng tomonga, uchta chap tomonga qarab harakatlansin.



(1-sinf, 1-qism 9-bet) Bunday geometrik topshiriqlar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Bu to'rtburchaklarni yonidan yana to'rtburchak chizishni, ularni birlashtirish orqali mashinaga o'xshash shakl hosil bo'lishini tasavvur qila olishi kerak.

1-sinf o'quvchilariga dastlabki geometric shakllar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash quyidagi tartibda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, o'quvchilarda "uchburchak haqida tushuncha berish uchun magnit doskaga har xil tuzilishdagi rangli uchburchaklarni osib bu shakllar nimasi bilan farq qilishi so'raladi?" O'quvchilar ko'rib turgan figuralarni farqini, ya'ni rangini, tuzilishi, katta – kichikligini javob tariqasida aytishadi. Ammo figuralar bir – biri bilan farq qilsada, (rasmi, tuzilishi, katta – kichikligi bilan) bular nimasi bilan o'xshashligi so'raladi unda o'quvchilar bu shaklning tomonlari, uchlari, burchaklari uchta ekanligini aytishadi. Bunday figuralarning qanday nomlanishini o'qituvchi so'rab oladi. O'qituvchi kartondan kesilgan uchta uchburchak ko'rsatadi (birinchisi katta, ikkinchisi kichik, uchinchisi kichkina) va bu shakllar nima ekanligini so'raydi "Nima uchun bular ham uchburchak deyiladi?. O'qituvchi uchburchakda nechta tomon, nechta uch va nechta burchak borligini ta'kidlab so'raydi. Uchburchakka boshqa nom qo'yish mumkinmi? Analiz qilinganda bu termin "uchburchak" va unga o'xshash so'zlarni ajratib olish kerakki - uch va uchburchak, o'qituvchi tushuntirib, o'quvchi buni tushunib sintez qiladi va uchburchak degan nom bu shakl uchun eng qulay ekanligini aytadi. Xuddi shunday tahlil to'rt burchak va ko'pburchak uchun bajariladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga har xil materiallardan: cho'plardan, plastilindan, qog'oz va kartondan uchburchaklar yasash topshirig'i beriladi. Geometrik shakllarni yasashda qog'ozga nuqtalar qo'yib, grafik tasvirlardan foydalanib, chizg'ich yordamida tutashtirib, yoki qog'oz buklash yordamida yasash ham mumkinligi o'rgatiladi. Albatta qog'oz kvadrat shaklda bo'lsa o'quvchilarning uchburchak yasashi ancha oson kechadi. Shu maqsad asosida o'quvchilarga savol beriladi

- o'quvchilar qo'limda qanday shaklni ko'rayapsiz?
- kvadrat
- bundan qanday shakllarni hosil qilishimiz mumkin?

- to'g'ri to'rtburchak va uchburchak
- qanday usulda?
- buklash yordamida. Mumkin bo'lgan holatlar buklab ko'rsatiladi.

O'quvchilarga bundan mashqlarni qog'ozda buklagan chiziqlarni ehtiyotkorlik bilan qirqib olishlari ham mumkin va bu figuralarni bir – biri bilan taqqoslashlari mumkinligi uqtiriladi.

“To'g'ri to'rtburchak” tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan materiallar ustida ishlash. Dskada har xil rangdagi to'rtburchaklar va ularning unga uch to'rtta to'g'ri to'rtburchaklar qolganlari to'rtburchaklar shuningdek birta, ikkita uchi to'g'ri bo'lgan to'rtburchaklarni va yana bitta ham to'g'ri burchagi bo'lmagan figuralarni osib qo'yadi. Ko'rgazmaga shunday tayyorlangan bo'lishi kerakki, ba'zi figuralar bir xil rangda (misol qilib olsak beshburchak va to'rtburchaklar bir xil rangda). O'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri to'rtburchakning to'g'ri burchagini topishni taklif qiladi. Shu o'rinda to'g'ri burchakli to'rtburchak va kvadrat haqida muhim ma'lumot va xossalr takrorlanib olinadi. O'qituvchi bolalarga savol bilan murojaat qilib:

- O'ylab ko'ring, to'rtburchakni hammasi to'g'ri burchakli bo'lsa, qanday deb atashni va barcha tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak nima deb atalishi so'raladi. Bolalar buni tushinishlari uchun qog'ozdan har xil modellar yasashlari kerak. Kvadrat haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak modelini qog'ozdan qirqib olishni va uni teng ikkiga buklash taklif qilinadi. Qanday shakllar hosil bo'lganligi so'raladi va o'quvchilar bilan analiz qilinadi

1-sinf matematika kursida yassi geometrik shakllar bilan birga hajmli shakllar bilan ham tushuntirish ishlari olib boriladi.

YASSI			HAJMLI		
doira			shar		
oval			silindr		
romb			piramida		
kvadrat			kub		
uchburchak			konus		
to'g'ri to'rtburchak			kuboid (to'g'ri burchakli parallelepiped)		

1-sinf 1-qism 12- bet. Bunday tushunchalar hayotiy predmetlar bilan solishtirish, taqqoslash orqali tushuntiriladi. Masalan: sharni koptokka, silindr- stakanga, kub- quttiga, kuboid- avtobusga qiyoslash orqali o'quvchilarning geometrik bilimlari chuqurlashtirilib, tasavvur qilish qobiliyatlari rivojlaniriladi. Vajmli shakllar nechta uch, nechta yoq va nechta qirraga ega ekanligini topish uchun tayyorlovchi tasvirlar berilgan bo'lib.




5. Kubchanning ko'rinmayotgan tomonlarida nechta nuqta bo'ladi? Ularni kataklarga belgilang.



21

Bu tasvir vositasida kubning ko'rinmaydigan yoqlari haqida ma'lumot berish orqali tasavvurlar hosil qilinadi. Albatta bunday tushuntirishlar ko'rgazmali amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

30. Nuqta. To'g'ri va egri chiziq



1-sinfda to'g'ri chiziq kesmi haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilarga to'g'ri chiziq haqida dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish uzun inlar yordamida amaliy ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikki o'quvchi doskaga chiqib uzun ipni ikki qarama-qarshi tomonida tarang tortib davom ettirilishini ko'rsatish bilan o'quvchilarda to'g'ri chiziqni cheksiz ekanligi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish mumkin bo'ladi. To'g'ri chiziq kesmasini tushuntirish ishi ham uzun to'g'ri chiziqni tarang tortib istalgan qismidan qaychi bilan qirchish orqali kesma hosil qilinadi. Kesma -bu belgilangan miqdorda ikki tomondan cheklanganligi amaliy tartibda ko'rsatiladi. Siniq chiziqni amaliy ishi sifatida uzun tarang tortilgan ipni bir necha o'quvchilar ishtirokida turli qismlaridan zig-zag usulda tortish orqali ko'rsatish mumkin. Egri chiziqni tushuntirish jarayonida engil atletika o'yinlaridan foylansa (televizorda ma'lum vaqt davomida) ham ijobiy natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki 1-sinfda geometrik materiallar ko'rgazmali va ko'rsatmali amaliy usulda tushuntirish o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirish bilan birga erkin mushohada yuritishga, kreativ fikrlashga o'rgatadi. Nazariy faktlar amaliy uslubda analiz qilinsagina kutilayotgan natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova, M. M., & Usmonova, Z. U. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDADA MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TEJAMKORLIK KO'NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 75-77.
2. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(2), 206-211.
3. Qosimov, M. F., & Kasimov, F. F. (2021). Methods of teaching to solve non-standard problems. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
4. Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDADA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. *BAHQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 358-362.
5. QOSIMOVA, M. (2020). ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS: ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
6. Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDADA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. *BAHQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 358-362.
7. Kasimov, F. M., & Qosimova, M. M. TECHNOLOGY OF WORK ON COMPARISON TASKS.
8. M.M. Kasimova S.Ikramova - The role of problems in developing students' creative thinking skills. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI jurnali* mart 2025 yil.